



## SAN'AT VA MADANIYATNING MAMLAKAT RIVOJIDAGI O'RNI

**Muallif:** Panjiyev Qurboniyoz Berdiyevich <sup>1</sup>, Muxtoriy Mohro'y Sodirzoda <sup>2</sup>

**Affilyatsiya:** Xalqaro Nordik universiteti professori <sup>1</sup>, FarDu o'qituvchisi <sup>2</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14382215>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqola san'at va madaniyatning mamlakat rivojiga qo'shgan hissasini o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu tadqiqot ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va xalqaro nufuzini oshirishda san'at va madaniyatning ahamiyatini tahlil qiladi.

**Kalit so'zlar:** madaniyat, san'at, milliylik, o'zlikni saqlash, tarbiya, ta'lim, ma'naviy boylik.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, Yangi O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

San'at va madaniyat har bir jamiyatning asosiy tayanchi bo'lib, u milliy o'zlikni shakllantirish va rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bugungi globallashuv davrida san'at va madaniyat iqtisodiy rivojlanish, xalqaro hamkorlik, ijtimoiy barqarorlik va texnologik taraqqiyotda muhim o'rin tutadi.

“San'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik hissi ortdi, voqelikdagi go'zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Quldorlik jamiyati vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi; aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqa boshladi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrda paydo bo'ldi. San'at esa o'zining o'ziga xos xususiyatini, quldorligini namoyon etib, quldorlikning mafkurasini targ'ib etuvchi kuchli g'oyaviy qurolga aylandi”.

San'at va madaniyat fuqarolarni birlashtiruvchi va milliy birdamlikni mustahkamlovchi vosita bo'lib xizmat qilishi aniqlandi. Masalan, madaniyat festivallari va ko'rgazmalari jamiyatda milliy qadriyatlarni targ'ib qilishga yordam beradi. “Ta'limda musiqa va san'atning o'rni madaniyat rivojiga katta hissa qo'shadi”. Madaniy meros obyektlariga investitsiyalar turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiy daromadlarni oshiradi. Madaniyat sohasi orqali ish o'rinlari yaratish iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (teatrlar, kinolar, musiqiy tadbirlar). San'at va hunarmandchilik sohalarining rivojlanishi kichik va o'rta bizneslarni qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Madaniyatni xalqaro miqyosda targ'ib qilish mamlakat nufuzini oshirishga, xorijiy investitsiyalar va hamkorlikni jalb

qilishga xizmat qiladi. Madaniyat va san'atning rivoji milliy birdamlikni kuchaytiradi va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Turizm va ijodiy industriyaning rivojlanishi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omildir. Ba'zi hududlarda madaniy sohaning texnologik integratsiyasi sustligi kuzatiladi. San'at va madaniyatni rivojlantirish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish. "Yurtimizda madaniyat va san'at ravnaqi yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida aks etgan ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor chora-tadbirlarga nihoyatda hamohangdir ". Madaniy sohalarni raqamlashtirish va texnologiyalarni keng qo'llash.

San'at va madaniyat nafaqat milliy qadriyatlarni saqlab qolishda, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda muhim o'rin tutadi. Davlat siyosati va xususiy sektorning qo'llab-quvvatlashi orqali ushbu sohalarning imkoniyatlarini yanada kengaytirish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Muminovna, R. D. (2024). O'zbekistonda xalq amaliy san'ati va milliy hunarmandchilikning rivojlanishi. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 7(4), 157-165.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'рни va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6000-sonli farmoni. 26.05.2020 yildagi

Panjiyev, Q. (2024). Pedagogical conditions and forms of professional music teacher's professional training. Nordic\_Press, 2(0002).

Turg'unova, M., & Akmal, A. (2024). San'atning dunyo miqyosiga kirishi. Samarali ta'lim va barqaror innovatsiyalar jurnali, 1(6), 340-344.

